



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTSORSING XIZMATLARINING O'RNI

*DSc, dots. **Kuvandikov Shuxrat***
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0000-0001-9702-3548
kuvandikovshurat78@gmail.com

Mirxonov Mirfoziljon
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0009-0004-1330-510X
mirxonovmirfoziljon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o'rne hamda mamlakat rivojiga ta'sirini takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari chuqur o'rganilgan. Mamlakatimizda autsorsing xizmatini rivojlantirish, xizmatlar sohasini kengaytirishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va raqamli iqtisodiyotga o'tishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi hamda sohani rivojlantirish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: xizmat, xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot, daromad, turmush darajasi, autsorsing xizmatlari, xarajatlarni optimallashtirish, ixtisoslashgan xizmatlar, texnologik yangiliklar.

РОЛЬ АУТСОРСИНГОВЫХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ СФЕРЫ УСЛУГ

*DSc, доц. **Кувандиков Шухрат***
Самаркандский институт экономики и сервиса

Мирхонов Мирфозилжон
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье подробно исследуется роль аутсорсинговых услуг в развитии сферы услуг, а также теоретико-методологические основы повышения их влияния на развитие страны. Развитие аутсорсинговых услуг в нашей стране считается одним из важнейших стратегических направлений расширения сферы услуг, повышения конкурентоспособности и перехода к цифровой экономике, а развитие отрасли имеет существенное научное и практическое значение.

Ключевые слова: услуга, оказание услуг, экономика, доход, уровень жизни, аутсорсинговые услуги, оптимизация затрат, специализированные услуги, технологические инновации.

THE ROLE OF OUTSOURCING SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICES SECTOR

*DSc, assoc. prof. **Kuvandikov Shukhrat**
Samarkand Institute of Economics and Service
Mirxonov Mirfoziljon
Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. *The article examines in detail the role of outsourcing services in the development of the service sector, as well as the theoretical and methodological foundations for increasing their impact on the country's development. The development of outsourcing services in our country is considered one of the most important strategic areas for expanding the service sector, increasing competitiveness and transitioning to a digital economy, and the development of the industry has significant scientific and practical significance.*

Key words: *service, provision of services, economy, income, standard of living, outsourcing services, cost optimization, specialized services, technological innovation.*

Kirish.

Xizmatlar ko'rsatish sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish uchun xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olinishi soha rivojiga sezilarli ta'sirni ko'rsatmasdan qolmaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni diversifikasiyalash, aholi bandligi, daromadlari va turmush darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida xizmat ko'rsatish sohasi rivojini ko'rsatish mumkin. Bu esa o'z-o'zidan aholini xizmat ko'rsatishga bo'lgan talabini oshishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi o'zi bu qanday soha va u qanday ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchalarni anglashimiz ushbu sohani qay darajada rivojlanayotgani haqida bilishimiz uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, xizmatlar miqdori 2018 yildagi 19 milliard dollardan 65 milliard dollarga oshdi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, turizm, aviasiya, ta'lim va tibbiyot sohalarida "katta sakrash" bo'ldi¹.

Ushbu xizmat turlarini rivojlanishi barobarida xizmatlarni taqdim etuvchilar ayrim xizmat turlarini tashqi ixtisoslashtirilgan korxonalar va tashkilotlar yordamida amalga oshirayotganligi ushbu xizmat turini rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi va bu xizmat outsourcing xizmati sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Xizmat deganda avvalo mehnat mahsulotini tushunish lozim. Ushbu mahsulotning asosiy belgilanishi bo'lib, insonlarning aniq talablarini qondirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda xizmat - bu insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir (Файзиёв, 2007).

Xizmatlar - bu harakat, ish, yoki ishni bajarish hisoblanib, ular sezilmasdir. Xizmatning mohiyatiga doir mavjud muammolarni hisobga olgan holda, ushbu so'zlarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalish maqsadga muvofiq. "O'zbekcha-ruscha lug'at"da "xizmat - xizmat qilish, ish, xizmatga (ishga) oid" (Узбекско-русский словарь, 1988) deyilgan. "O'zbek tilining izohli

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/7863>

lug'ati" da esa xizmat; ish; lavozim; xizmat ko'rsatish; yordam. Bundan tashqari, "xizmat" iborasi bir necha mazmunda qo'llanilishi e'tirof etilgan:

1. Biror ish yoki mehnat bilan shug'ullanish, biror ishni bajarish, ish, mehnat;
2. Birovning ishini bajarish, yaxshilik qilish; yaxshilik;
3. Biror tashkilot yoki muassasada bajariladigan ish, vazifa, lavozim;
4. Ish, vazifa funksiya;
5. Ish, topshiriq, vazifa;
6. Armiya safida bo'lish, harbiy majburiyatni o'tash (Лыфат, 2008).

Rossiyalik olim Dalning (1882) lug'atida xizmat tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: Xizmat ko'rsatish, yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq. Biroq ushbu lug'atlarda keltirilgan talqinlarda "xizmat" tushunchasining mohiyati to'liq ifodalanmagan.

Rossiyalik olim Ojegov (1991) tahriri ostida chop etilgan rus tili gramatik lug'atida "xizmatlar" bu "naf, foyda keltiradigan harakat, boshqalarga yordam deb hisoblanadi" degan fikr ilgari surilgan.

Amerikalik iqtisodchi Kotler (1992) o'zining "Marketing asoslari" nomli kitobida "xizmatlar – bu obyektini sotish jarayonida o'z manfaatini qondirish, muayyan bir naf olish uchun qilingan harakat" degan holda, o'zining fikrini davom ettirib, "ishlab chiqarishda xizmatlar moddiy ko'rinishdagi tovarlar bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin", deb hisoblagan.

G'arb iqtisodchilaridan Makkonnell, Bryu (1993) xizmatlarga quyidagicha ta'rifni berdi: "xizmatlar (service) – bu ko'zga ko'rinmas bo'lsada, ammo uning uchun iste'molchi, firma yoki uning vakili qimmatliroq narsani berishga doimo tayyor turadi".

Klassik iqtisodchilardan Marks (1960) o'zining "Kapital" asarining birinchi tomida xizmatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "xizmatlar – bu tovar yoki mehnatning iste'mol qiymatini u yoki bu ko'rinishidagi foydalilik (naflilik) harakatidan boshqa narsa emas".

Rayzberg, Lozovskiy, Starodubsevalar (2007) zamonaviy iqtisodiy lug'atda outsorsinga "...tashkilotning an'anaviy asosiy bo'lmagan funksiyalarini... tashqi ijrochilarga o'tkazish..." deb ta'rif berishgan.

Tadqiqotchi mutaxassis Ivlev (2021) tomonidan outsorsing shunday ta'riflanadi: "... bu "sifat-xarajat-egalik" parametrlari asosida biznes tizimining konfiguratsiyasini optimallashtiradigan tashkiliy qaror; "...outsorsing – bu tomondan qarz olish". Ushbu olim o'z ta'rifida o'zgacha yondoshuvni olg'a surgan bo'lib, u xizmatlarni qarz sifatida nomoyon qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy maqolada bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli taxlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik ko'zatish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda outsorsing xizmatlarining o'rni juda muhim bo'lib, u sohaning samaradorligi, sifat ko'rsatkichlari va raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Outsorsing (Outsourcing) - bu kompaniya yoki tashkilotning ayrim funksiyalarini yoki xizmatlarini tashqi ixtisoslashgan tashkilotga topshirish jarayonidir. Maqsad - xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, va asosiy faoliyatga e'tiborni qaratish.

Outsorsing xizmatlarining rivojlanish bugungi kunda asosiy va dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi va ushbu xizmat rivojlanishi quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bular quyidagilar:

1. Xarajatlarni optimallashtirish – ichki xizmatlar o'rniga tashqi mutaxassislar arzonroq tushadi.

2. Ixtisoslashgan xizmatlar sifati yuqori bo'ladi – tashqi tashkilotlar o'z sohasi bo'yicha yetuk tajribaga ega bo'ladi.

3. Texnologik yangiliklardan foydalanish – autsors kompaniyalar ilg'or texnologiyalar bilan ishlaydi.

4. Asosiy faoliyatga e'tiborni qaratish imkoniyati.

1-jadval

Autorsing xizmatlari turlari

Xizmat turi	Misollar
Axborot texnologiyalari	Dasturiy ta'minot ishlab chiqish, texnik xizmat ko'rsatish
Buxgalteriya va moliya	Hisob-kitob, audit, soliq hisoboti
Inson resurslari	Kadrlarni yollash, ish haqi hisoblash
Mijozlarga xizmat ko'rsatish	Call-markazlar, texnik qo'llab-quvvatlash
Marketing	Reklama, SMM, brending

Mamlakatimizda autorsing xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri keng qamrovli bo'lib, u nafaqat xizmatlar sektori, balki ishsizlik darajasi, tadbirkorlik faoliyati, soliq tushumlari va eksport salohiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Autorsing xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri qo'yidagi jarayonlarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, **ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda, unga:**

- korxonalar o'z e'tiborini asosiy faoliyatga qaratadi.
- yordamchi xizmatlar (IT, buxgalteriya, kadrlar) tashqi mutaxassislariga topshiriladi.
- bu biznes jarayonlarni tezlashtiradi va optimallashtiradi.

Ikkinchidan, **yangi ish o'rinlari yaratilishida, bularga:**

- autorsing kompaniyalari tashkil etiladi.
- ayniqsa, yoshlar va IT sohasi mutaxassislari uchun yangi ish imkoniyatlari yaratiladi.
- dasturchilar, dizaynerlar, hisobchilar kabi mutaxassislariga talab ortib boradi.

Uchinchidan, eksport hajmini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi va bu jarayon quyiagilardan o'z aksini topadi:

- IT va xizmat sohalari orqali autorsing xizmatlari xorijiy bozorga chiqariladi.
- bu mamlakatning **eksport salohiyatini** kengaytiradi.

To'rtinchidan, soliq tushumlarining oshishida namoyon bo'ladi, quyidagi jarayonlarda o'z aksini topadi:

- rasmiy faoliyat olib boruvchi autorsing kompaniyalari davlat byudjetiga soliq to'laydi.
- kichik biznes va startaplar orqali mikroiqtisodiyot faollashadi.

Beshinchidan, **xizmatlar sohasi ulushining o'sishi (YAIM) da o'z aksini topadi va quyidagilarda o'z aksini topmoqda.**

- O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushi ortib bormoqda.
- autorsing bunda **tezlashtiruvchi drayverlardan biri** sifatida ishlamoqda.
- 2024 yildan boshlab IT-autorsing sohasi bo'yicha soliq imtiyozlari va IT-parklar orqali rivojlanish jarayoni jadallashgan.

Yuqoridagi jarayonlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ushbu jarayonlar nafaqat soha rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholi farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda autorsing xizmatini rivojlantirish – bu xizmatlar sohasini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va raqamli iqtisodiyotga o'tishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi, hamda sohani rivojlantirish orqali quyidagi muhim imkoniyatlar eshigi ochiladi. Bular:

1. Xizmat sifatini oshirish – mutaxassislar orqali tezkor va yuqori sifatda xizmat ko'rsatiladi.
2. Korxonalar samaradorligini oshirish – asosiy faoliyatga e'tibor qaratilib, yordamchi funksiyalar tashqariga beriladi.
3. Ish o'rinlari yaratish – yangi outsorsing kompaniyalar orqali ishsizlik kamayadi.
4. Eksport imkoniyatlari – IT va boshqa sohalar orqali xizmatlar xorijga sotilishi mumkin.
5. Raqobatbardoshlik oshadi – ichki va tashqi bozorda sifat va tezkorlik yuzasidan ustunlik yaratiladi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

- Даль В.И. (1882) Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. –М., Т. IV. С.512.
- Ивлев А. (2021) 10 ключевых вопросов аутсорсинга / Ивлев А. [Электронныйресурс]. –Режимдоступа: https://ur-pro.ru/library/strategi/outsourcing/10_key_quest/ (дата обращения: 30.11.2021 г.)
- Котлер Ф. (1992) Основы маркетинга. –М.: Прогресс. -734с.
- Луғат (2008) Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 4-жилд. – Тошкент: 395-396-бетлар.
- Макконнелл К.Р., Брю С.Л. (1993) Экономикс-Принципы, проблемы и политика. /В 2 – х томах. Пер.с англ. –Таллин. Римол. –Т.: 1. -398с.
- Маркс К. (1960) Капитал. // Марко К., Энгельс Ф. Соч. –2-е изд. –М.: Т. 23. –908 с.
- Ожегов С.И. и др. (1991) Грамматический словарь русского языка. -М.: Русский язык. - 432стр.
- Райзберг,Б.А. (2007) Современный экономический словарь. 5–еизд., перераб. И доп./ Б.А.Райзберг, Л.Ш.Лозовский, Е.Б.Стародубцева. –М.: ИНФРА–М, -495 с.
- Ўзбекско-русский словарь. (1988) –Ташкент, С. 519.
- Файзиев Э.С. (2007) Сервис тизими фаолияти асослари. Маърузалар матни. Самарқанд, 11-бет.